

## ONA TILI VA ADABIYOT DARSLARIDA YOZMA ISHLAR VA ULARNING TURLARI

**Almardonova Zebiniso Abduxoligovna**

*Termiz davlat universiteti filologiya va tillarni o‘qitish:  
o‘zbek tili yo‘nalishi (2-OT) 4-bosqich 122-guruh talabasi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqola ona tili va adabiyot darslarida yozma ishlar va ularning turlariga bag'ishlangan. Maqolada yozma ish turlarining tasnifi, har bir turining maqsadi, o‘ziga xos xususiyatlari va o‘quv jarayonidagi ahamiyati batafsil tahlil qilinadi. Ta'limiy, tekshiruv va ijodiy yozma ishlar turlari, ularning o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalarini rivojlantirishdagi roli yoritiladi. Shuningdek, maqolada yozma ishlarni baholash mezonlari, yozma ishni baholashda yo‘l qo‘yiladigan xatolar va yozma ishni baholash tizimini takomillashtirish yo‘llari ham ko‘rib chiqiladi. Maqola ona tili va adabiyot o‘qituvchilari, metodistlar va yozma ishlar mavzusi bilan qiziquvchi barcha mutaxassislar uchun foydali bo‘lishi mumkin.

**Kalit so‘zlar:** ona tili, adabiyot, yozma ishlar, ijodiy yozma ishlar, diktant bayon, insho, baholash, mezon, nutq o‘stiris, savodxonlik.

### **Kirish**

Respublikamizda umumiy o‘rta ta’lim maktablari uchun Davlat ta’lim standartlari ishlab chiqilganligi munosabati bilan yozma ishlarga bo‘lgan talablar ham ortmoqda. DTSda ko‘rsatilganidek, o‘quvchi 15-20 daqiqa ichida mustaqil ijod qilib, o‘zining fikr-mulohazalarini sodda, ravon tilda mukammal ifoda qilishi va kamida 20-25 ta jumla yoza olishi kerak. Har bir o‘quvchi ijodiy ishni yozishdan oldin mavzuni to‘liq o‘zlashtirgan va mustaqil tahlil qila oladigan bo‘lishi kerak. Tanlangan mavzuni dalillar asosida, manbalar bilan boyitgan holda ijodiy yondashib bayon etishi kerak. Dars jarayonida amalga oshiriladigan yozma mashg‘ulotlarning aksariyati ko‘chirib yozish, savollarga javob yozish, tayanch so‘zlar asosida matn yaratishdir. Yozma mashg‘ulotlar

o‘quvchilarning yoshi va bilim darajasiga qarab soddadan murakkabga tomon berilishi darkor. Shuning uchun ham biz, avvalo, yozma nutq o‘zi nima, uning ta‘lim jarayonidagi ahamiyati, o‘rni haqida qisqa to‘xtalib o‘tmoqchimiz. Yozma nutq faoliyati insoniyat uchun eng mahsuldor tur hisoblanadi. O‘quvchilarni yozma nutqqa o‘rgatish uning salmog‘ini oshirish yo‘li bilan asta–sekin murakkablashib borishiboradi. Maktabda yozma ishlar qaysi maqsadda o‘tkazilishiga qarab ikki turga bo‘linadi:

a) ta‘limiy yozma ishlar: **diktant, bayon, insho;**

b) tekshiruv (nazorat) yozma ishlari.

Adabiyot darslarida yozma nutq o‘stirishning, asosan, uch turidan foydalaniladi:

1. Kichik hajmdagi yordamchi yozma ishlar.

2. Bayonlar.

3. Insholar.

Kichik hajmdagi yordamchi yozma ishlar vositasida nutq o‘stirishni dastlabki adabiyot darslaridanoq amalga oshirishga kirishiladi. O‘quvchilarga adabiyot daftari tutdirilishi bu ishning izchilligi va samaradorligi uchun yo‘l ochadi.

**Bayon** o‘rta maktab ta‘lim-tarbiya tizimida nutq o‘stirish vositasi sifatida g‘oyat muhim o‘rin tutadi. U yozma ishning asosiy turlaridan biri bo‘lib, asar yoki undan olingan parcha mazmunini o‘quvchi tomonidan «o‘z so‘zi» — o‘ziga xos uslubi asosida izchil, savodli qayta bayon etishni taqozo etadi. Bayonning ta‘lim-tarbiyaviy ahamiyati katta, U ona tili va adabiyotdan o‘quvchining qanchalik bilim, malaka va ko‘nikmalarga ega bo‘layotganini, nutq madaniyati taraqqiyoti darajasini ko‘rsatsa, ikkinchi tomondan, matn mazmuni orqali axloqiy-estetik kamolotga yetaklaydi, mehnat va tabiatga muhabbat ruhini singdiradi, chinakam insoniy fazilatlarni shakllantiradi. Bayon o‘z xususiyatiga ko‘ra diktant va inshodan farq qiladi. Bu uch tur yozma ishlardagi o‘zaro umumiy o‘xshashlik shundaki, ularni o‘tkazishdan oldin o‘qituvchi yozilishi lozim bo‘lgan mavzuni, matnni aniqlaydi, o‘qiydi, o‘quvchilar esa o‘qituvchi rahbarligida

topshiriqni savodli yozish uchun harakat qiladilar. Ularning bir-biridan farqi shundaki, diktant matni o'qituvchi tomonidan aytib turib yozdiriladi. Bayonda esa matn o'qib berilganidan so'ng, o'quvchilar o'zlashtirganlarini xotira asosida yozishga kirishadilar. Diktant o'quvchilarning grammatikadan qanchalik ongli bilim olganligini namoyish etadi, savodxonligini oshiradi, yozuv malakasini puxta egallashga undaydi. Bayon va insho yozishda esa o'quvchilar yozma nutq malakalarini namoyish etadilar, o'zlarining tafakkur kuchi va nutq boyliklariga suyanadilar. Bu bayon bilan inshoning o'xshash tomonlaridir. Ular o'rtasidagi farq shundaki, agar bayon ta'limiy xarakterda bo'lsa, matn o'qib berilgach, o'quvchilar uning mazmunini og'zaki gapirib beradilar. Shundan keyingina yozishga kirishadilar. Inshoda esa o'quvchilarga matn o'qib berilmaydi, balki faqat mavzu tavsiya etiladi. Mavzu bo'yicha reja tuziladi va o'quvchilar shu reja bo'yicha o'z fikrlarini mustaqil ravishda ifodalaydilar. Ta'limiy bayonda oldin bayon yozish talablari va qoidalari aytiladi, shu haqda ularga zarur bilim beriladi, keyin bayon yozish mashqi izchil davom ettiriladi. Shu sohada o'quvchilarning qanchalik bilim, ko'nikma va malakalarga ega ekanliklarini tekshirish, sinash maqsadida vaqt-vaqti bilan sinov-tekshiruv (kontrol) bayoni o'tkaziladi. Matn tanlashda o'quvchilarning yosh xususiyatlari va bilim saviyalari hisobga olindi, ayniqsa matnning tarbiyaviy jihatiga, davr talablariga qay darajada mosligiga e'tibor berildi.

Maktabda bayon uch bosqichda o'tkaziladi:

1. Bayon yozishga tayyorgarlik, matn mazmunn ustida ishlash.
2. Uni yozish jarayoni.
3. O'quvchi yozgan bayon xatolarini tahlil etish, tuzatish, baholash xato ustida ishlash.

Bayon yozishga tayyorgarlik davrida sinf xarakteridan, o'qituvchi tematik rejasidan kelib chiqib, mavzu belgilash, matn bilan chuqur tanishish, maqsad va vazifalarni aniqlash, rejasini tuzish, lug'at ustida ishlash yo'llarini rejalashtirish va amalga oshirish - birinchi bosqichni o'z ichiga oladi. Bayon yozishning ikkinchi bosqichida o'quvchining matn mazmunini qanchalik tushunib olganini bir, ikki savol

bilan aniqlab olgach, bayonni tinch o‘tirib yozish davom etadi, ish yozib bo‘lingach, mustaqil o‘qib chiqish uchun 3-5 minut vaqt beriladi, so‘ngra yig‘ib olinadi. Shuni alohida ta’kidlash kerakki, bayon yozishda lug‘at ustida ishlashga yetarli o‘rin berilishi kerak. Masalan, 5- sinfda Abdulla Avloniyning. «Tulki bilan Qarg‘a» ertagi bo‘yicha bayon yozish uchun quyidagi tartibda lug‘at ishi uyushtirilishi mumkin: o‘qituvchi ertakni o‘qitib, undagi «laylak» (laylak), «domi tazvirin» («hiyla tuzog‘i), «mone`» (to‘siq), «kor» (ish), «voqif» (xa-bardor),

«chu» (kabi, singari), «pand» (aldamoq, firib bermoq), «edan» (etgan, qilgan), «hijron» (ayriliq) kabi so‘zlarga izoh beradi. So‘ngra matn mazmunini o‘quvchilar hikoya qiladilar, suhbatda o‘qituvchi yoziladigan bayonga yana qanday izoh berilishi zarurligi, nimalar tushunilmay qolganini so‘raydi. Bayonning mazmunli, tartibli, izchil yozilishida reja (plan) muhim o‘rin tutadi. Shuning uchun I-IV sinflarda reja tuzish uzluksiz mashq qilinadi. V-IX sinflarda esa mustaqil ravishda reja tuzishga jiddiy e’tibor beriladi. Bayon yozishning uchinchi bosqichi bayonni tahlil etish, tuzatish va baholashni o‘z ichiga oladi.

Har bir yozma ish turi o‘ziga xos maqsadi, vazifalari va talablariga ega. O‘qituvchi darsning maqsadiga, o‘quvchilarning yoshiga va bilim darajasiga mos keladigan yozma ish turini tanlashi lozim. Yozma ishni baholashda uning maqsadga muvofiqligi, fikrning aniqligi, mantiqiyliqi, uslubning to‘g‘riligi va savodxonlik hisobga olinadi.

Sodda va murakkab tarkibli matnlar matnning tuzilishi, grammatik xususiyatlari va mazmuniy murakkabligi bilan farqlanadi. Ularni tushunish o‘quvchining o‘qish qobiliyatini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega.

**Sodda matnlar** - bu grammatik jihatdan sodda tuzilishga ega bo‘lgan, oson tushuniladigan so‘zlar va iboralar ishlatilgan, aniq va ravshan mazmunga ega bo‘lgan matnlar. O‘ziga xos xususiyatlari odatda, gaplar qisqa va sodda bo‘ladi. Keng tarqalgan va oson tushuniladigan so‘zlar ishlatiladi. Matn mantiqiy ketma-ketlikda tuzilgan, asosiy fikrlar aniq ifodalangan. Murakkab grammatik konstruksiyalar va so‘z takrorlaridan qochiladi. Odatda, kundalik hayotga oid, oson tushuniladigan mavzular

yoritiladi. Ko‘pincha rasmlar, diagrammalar yoki boshqa vizual elementlar bilan birga keladi.

**Murakkab matnlar** - bu grammatik jihatdan murakkab tuzilishga ega bo‘lgan, kam ishlatiladigan so‘zlar va iboralar ishlatilgan, chuqur va ko‘p qirrali mazmunga ega bo‘lgan matnlar. O‘ziga xos xususiyatlari uzun gaplar odatda, gaplar uzun va murakkab bo‘ladi (qo‘shma gaplar, ergash gaplar). Kam ishlatiladigan, ko‘p ma'noli so‘zlar va terminlar ishlatiladi. G‘oyalar, nazariyalar va tushunchalar yoritiladi. Matn ko‘p qismlardan iborat bo‘lishi mumkin, fikrlar o‘rtasida murakkab bog‘liqlik mavjud. Murakkab grammatik konstruksiyalar va so‘z takrorlari ishlatilishi mumkin. O‘quvchidan tanqidiy fikrlash va tahlil qilish qobiliyatini talab qiladi.

O‘qituvchilar o‘quvchilarning yoshiga, bilim darajasiga va maqsadlariga mos keladigan matnlarni tanlashlari kerak. Sodda matnlar o‘qish ko‘nikmalarini shakllantirish uchun, murakkab matnlar esa tanqidiy fikrlashni rivojlantirish va bilim doirasini kengaytirish uchun ishlatiladi. O‘quvchilar asta-sekin sodda matnlardan murakkab matnlarga o‘tishlari kerak.

**Bugungi kun maktab ona tili ta'limida o‘quvchilarda samaradorlikni oshiradigan yozma imtihonlarni tashkil etishda quyidagi omillarga e'tibor qaratish lozim:**

Diktant, bayon va insho kabi an'anaviy imtihonlar o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan., biroq ularni zamonaviy talablarga moslashtirish lozim. Grammatik qoidalarni tekshirish uchun qisqa, aniq matnlardan foydalanish. Izohli diktant, lug‘at diktanti kabi turlarni qo‘llash. O‘quvchilarga matnni tahlil qilish va o‘z so‘zlari bilan ifoda eta olish imkoniyatini beradigan mavzularni tanlash. Ijodiy bayon turlariga e'tibor qaratish. O‘quvchilarni mustaqil fikrlashga undaydigan, ularning ijodiy qobiliyatlarini namoyon etishga imkon beradigan mavzularni tanlash.

Yozma ish Imtihonining o‘ziga xosligi:

- Yozma ish topshiriqlari o‘quvchilarning kundalik hayotda qo‘llay oladigan bilim va ko‘nikmalarini tekshirishi kerak.

- Yozma ish topshiriqlari o‘quvchilar uchun qiziqarli va motivatsiya beruvchi bo‘lishi kerak.

- Yozma ish topshiriqlari o'quvchilarning turli darajadagi bilim va ko'nikmalarini tekshirishi kerak.

- O'quvchilarni muammoli vaziyatlarni hal qilishga undaydigan topshiriqlardan foydalanish.

**Baholash mezonlari** o'quvchilarga oldindan e'lon qilinishi kerak. Baholash mezonlari barcha o'quvchilar uchun bir xil bo'lishi kerak. Baholashda o'qituvchining shaxsiy fikri emas, balki baholash mezonlari asosiy rol o'ynashi kerak. O'quvchilarning xatolarini tahlil qilish: Imtihon natijalari o'quvchilarning qaysi mavzularni yaxshi o'zlashtirganliklarini va qaysi mavzularni qayta o'rganish kerakligini aniqlashga yordam beradi. O'qitish metodikasini takomillashtirish: Imtihon natijalari o'qituvchining o'qitish metodikasini takomillashtirishga yordam beradi. Yozma ish natijalari har bir o'quvchiga individual yondashuvni ta'minlashga yordam beradi.

**Yozma ishni baholash tizimi o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini adolatli va xolis baholashga qaratilgan.**

Baholash tizimi o'quvchilarning yutuqlarini aniqlashga, ularning o'sishiga ko'maklashishga va o'qitish jarayonini takomillashtirishga xizmat qilishi kerak.

Yozma ishni baholashda quyidagi asosiy mezonlarga e'tibor qaratiladi:

1. Mavzuning ochib berilishi (Mazmun):

- Mavzuning to'liq va chuqur ochib berilishi.
- Asosiy g'oyaning aniq ifodalanishi.
- Dalillar va misollar bilan fikrlarning asoslanganligi.
- Mavzuga mos kelmaydigan ma'lumotlarning yo'qligi.

. Fikrning ifodalanish ravonligi (Nutq):

2. Fikrlarning mantiqiy ketma-ketlikda bayon etilishi.

- Gaplarning grammatik jihatdan to'g'ri tuzilishi.
- Uslubning aniqligi va ravshanligi.
- So'z boyligining yetarli bo'lishi.
- Takrorlardan qochish.

3. Grammatik to'g'rilik (Savodxonlik):

- Grammatik xatolarning yo'qligi.

- Soʻzlarning toʻgʻri qoʻllanilishi.

4. Imlo va punktuatsiya qoidalariga rioya qilinishi (Savodxonlik):

- Imlo xatolarning yoʻqligi.

- Puntuatsiya belgilarining toʻgʻri qoʻllanilishi.

5. Ijodiy yondashuv:

- Mavzuga oʻziga xos nuqtai nazardan yondashuv.

- Noodatiy fikrlarni ifodalash.

- Ijodiy tasavvurni namoyon etish.

6. Tuzilish (Kompozitsiya):

- Kirish, asosiy qism va xulosaning mavjudligi.

- Qismlar oʻrtasidagi mantiqiy bogʻliqlik.

- Har bir qismning vazifasini bajarishi.

II. Yozma ishni baholash shkalasi:

Oʻzbekiston maktablarida odatda 5 ballik baholash tizimi qoʻllaniladi:

• 5 (A'lo): Barcha mezonlar boʻyicha yuqori natijalarga erishilgan.

• 4 (Yaxshi): Aksariyat mezonlar boʻyicha yaxshi natijalarga erishilgan, lekin ayrim kamchiliklar mavjud.

• 3 (Qoniqarli): Asosiy mezonlar boʻyicha qoniqarli natijalarga erishilgan, lekin koʻplab kamchiliklar mavjud.

• 2 (Qoniqarsiz): Asosiy mezonlar boʻyicha qoniqarsiz natijalarga erishilgan, koʻplab jiddiy xatolar mavjud.

• 1 (Yomon): Yozma ish bajarilmagan yoki juda yomon bajarilgan.

**Yozma ishni baholashni takomillashtirish yoʻllari:**

1. Oʻquvchilarga baholash mezonlari oldindan eʼlon qilinishi kerak. Mezonlar aniq, tushunarli va oʻlchovli boʻlishi kerak.

2. Rubrikalar har bir mezon boʻyicha aniq tavsiflar beradi va baholashni xolisona amalga oshirishga yordam beradi. Rubrikalar oʻquvchilarga oʻzlarining yutuqlari va kamchiliklarini tushunishga yordam beradi.

3. O'quvchilarga o'z ishlarini va sinfdoshlarining ishlarini baholash imkoniyatini berish. Bu o'quvchilarga baholash mezonlarini tushunishga va tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi.

4. O'quvchilarga o'z ishlarining yaxshi va yomon tomonlari haqida batafsil fikr-mulohazalar berish. Fikr-mulohazalar konstruktiv va motivatsiya beruvchi bo'lishi kerak.

5. O'quvchining o'quv yili davomidagi ishlarini to'plash va baholash. Bu o'quvchining o'sishini kuzatish va baholash imkoniyatini beradi.

6. Onlayn baholash vositalaridan foydalanish baholash jarayonini avtomatlashtirishga va o'quvchilarga tezkor fikr-mulohazalar berishga yordam beradi.

7.: Baholash tizimini o'quv maqsadlariga va o'quvchilarning ehtiyojlariga mos ravishda doimiy ravishda takomillashtirib borish kerak.

8. O'qituvchilar baholash usullari bo'yicha muntazam ravishda malaka oshirishlari kerak.

#### **Yozma ishni baholashda yo'l qo'yiladigan xatolar:**

1. Baholashda o'qituvchining shaxsiy fikri emas, balki baholash mezonlari asosiy rol o'ynashi kerak.

2. Birinchi taassurot asosida baholash.

3. Yozma ishning kuchli tomonlarini ham e'tiborga olish.

4. O'quvchining o'tmishdagi natijalariga asoslanib baho qo'ymaslik.

5. O'quvchiga o'zining yaxshi tomonlarini ham ko'rsatish.

6. Fikr-mulohazalar aniq, konstruktiv va motivatsiya beruvchi bo'lishi kerak.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1,Abdullayeva M. Yozma ishlar asosida nutq o'stirish. —Ta'lim jarayonida yozma savodxonlikni oshirishning asosiy omillaril. O'TDA yig'ini materiallari. Toshkent. 2015 yil. 327-329 betlar.

2. Abdurahmonova S. Ona tili darslarida o'quvchilarning yozma nutqini rivojlantiruvchi zamonaviy pedtexnologiyalardan foydalanish usullari. —Ta'lim jarayonida yozma savodxonlikni oshirishning asosiy omillaril. O'TDA yig'ini materiallari. Toshkent. 2015 yil. 351-353 betlar.



3. B.To‘xliyev, M.Shamsieva, T.Ziyodova. O‘zbek tili o‘qitish metodikasi. Toshkent, 2010 yil 9. Begmatov E., Boboyeva A

4.Djumaydillayevna, S. N. (2024). O‘ZBEK SHOIRLARI IJODIDA LIRIK KECHINMA VA BADIY KO‘CHIMLAR UYG‘UNLIGI. Hamkor konferensiyalar, 1(2), 382-386.

5.Saidovna, N. N. (2021). Oybek'in "navoi" adli romanı hakkında. ACADEMICIA: Uluslararası Multidisipliner Bir Araştırma Dergisi, 11(7), 153-156.

6.Saidovna, N. N. (2023). Hoca Abdullah'ın Eserlerinin İncelenmesi. Farmasötik Negatif Sonuçlar Dergisi, 14.

#### 7. [EPISTOLYAR ASARLARDAGI ZIDDIYATLI UYG'UNLIK](#)

QM Dusmuratov - Экономика и социум, 2024